

**BOSHLANG‘ICH SINFLAR ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI  
DARSLARIDA O‘QUVCHILARINI IJODIY FIKRLASHGA  
O‘RGATISH USULLARI**

*Payanova Mukaddas Eshmuminovna*

[mukaddaspayanova@gmail.com](mailto:mukaddaspayanova@gmail.com)

+998938728485

*Termiz Davlat Universiteti Pedagogika instituti*

*Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(boshlang‘ich ta’lim)*

*II-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi ta’limi jarayonida o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatish usullariga oid masalalar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Boshlang‘ich sinf, til, kompetensiya, nutq, mustaqil fikrlash, ongli dunyoqarash, ona tili, metod.

Jamiyatimiz buyuk o‘zgarishlar tomon yuz tutgan bugungi davr ta’lim tizimi oldiga erkin fikrlovchi, har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash uchun ta’lim-tarbiya jarayonini o‘zgartirish muammosini qo‘ydi. Bu esa har bir o‘qituvchidan erkin, ijodiy faoliyat tajribasini rivojlantirish, bilish faoliyatini ilmiy asosda boshqarish, shaxs psixologiyasini e’tiborga olgan holda o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘qitish emas, o‘qishga o‘rgatish tizimiga o‘tishni talab qiladi.

Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarda ijodiy fikrlash orqali mustaqil, erkin fikrlay olish, tahlil qilish, taqqoslash, fikrlarni izohlash, bahslashish, o‘z g‘oyalarini himoya qilish va yangiliklarga intilish kabi malakalari bilan bir qatorda, mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, dunyoqarashi, o‘z-o‘zini anglash, kommunikativ savodxonligi, go‘zallik va nafosatni his etib, undan zavqlana olish, aqlan va jismonan sog‘lom bo‘lish, milliy urf-odatlarini o‘ziga singdirish va qadrlash kabi muhim xususiyatlari rivojlantiriladi. Bu o‘z navbatida kichik yoshdagi o‘quvchilarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirish va amalda to‘g‘ri qo‘llay olishlarini ta’minlaydi. shunga ko‘ra, boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarni ijodiy fikrlashlarini rivojlantirish uchun darsning maqsadini aniq, pedagogik texnologiya asosida loyihalab olish muhim ahamiyatga ega. Agar o‘quvchiga to‘g‘ri va maqsadli savol berilsa, hayot uchun foydali topshiriqlarni

bajarishga o‘rgatilsa, zarur nutqiy malakalar mashq qildirilsa, ijodiy tafakkur sohiblari yetishib chiqishi muqarrar.<sup>1</sup>

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, yillar davomida ta‘lim tizimida hukm surgan o‘qituvchi bosh subyekt bo‘lgan ta‘lim usulida bolalar faqat o‘qituvchi rahbarligi ostida ishlagandagina tez fikrlay oladi, topshiriqlarni faqat o‘qituvchi bergan ko‘rsatmalar asosida bajaradilar. Bu esa, insonda ijtimoiy muammolarning tub mohiyatini anglamaslik, fikriy qaramlik, faqat shaxsiy manfaatlar doirasida faoliyat ko‘rsatish, beqarorlik kabi salbiy hislatlar shakllanishiga olib keladi.

Boshlang‘ich sinfdayoq o‘quvchilarni mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatishda, avvalo o‘quvchilarni erkin tinglovchi shaxsdan erkin ishtirokchiga aylantirish lozim. Bunda o‘qituvchi hamkorlik pedagogikasi asosida o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, psixologik holatini chuqur o‘rganib darslarni tashkil qilishi har bir o‘quvchining o‘z fikrini bayon qila olishida muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinfdayoq mustaqil-ijodiy fikrlash ko‘nikmalari shakllantirilgan o‘quvchi real hayotda turli muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilish ko‘nikmalarini egallab boradi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini o‘qitishda kommunikativ yondashuvga asoslanish, ya‘ni tilning muloqot vazifasi birinchi o‘rinda turishi kerak. Shuningdek faoliyatga yo‘nalgan yondashuv, ongli yondashuv, kashfiyotchilik yondashuvi va tanqidiy yondashuv kabilar e‘tiborda bo‘lishi lozim. o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini mustaqil fikrlash darajasi va nutqini o‘stirishning zaruriy omillaridan biri lug‘atlar ustida ishlashdir. Lug‘atlar o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini mustaqil fikrlash darajasi ijodiy fikr mahsulini og‘zaki va yozma shakllarda ravon bayon etishga olib keladigan behad qimmatli va boy so‘z zaxirasini vujudga keltiradi.

kichik yoshdagi o‘quvchilarni fikrlash, izlanish va aniq maqsad sari intilib ongli ravishda bilim olish va dunyoqarashini kengaytirish uchun ta‘lim-tarbiya berishda metodlarning xilma-xil bo‘lishini talab etadi.

Ana shunday yangi texnologiyalardan biri o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash malakasini shakllantirishdir. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilar darslikda keltirilgan ma‘lumotlarni yodlashlari kerak emas, ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishimiz kerak. Biz bolalarni birinchi sinfdan „Nima uchun?“ degan savolni berishga o‘qitmaymiz, biz tanqidiy fikrlashga o‘rgatmaymiz. Hozirgi kunda mamlakatimizda xorijlik hamkorlarning bu yo‘nalishdagi tajribalarini o‘rganish va bu tajribani bizning o‘qituvchilarimiz uchun moslashtirish bo‘yicha bir qator ishlar olib borilyapdi. Ona tili va o‘qish savodxonligi o‘qitish metodologiyasi bolalarni mustaqil

---

<sup>1</sup> M.E.Payanova.Ona tili darslarida o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish va nutqini o‘stirish.

ma'lumot va bilim olishga o'rgatishi kerak. Agar biz bolalarni tankidiy fikrlashga o'rgatsak, internet davrida ular savollarga o'zlari javob olishlari mumkin.<sup>2</sup>

Sinfdan tashqari o'qish darslari boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslari jarayonida o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirishga katta ahamiyatga ega. O'quvchilarda o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri tahlil qila oladigan, ongli kitobxonni tarbiyalash sinfdan tashqari o'qish darslarining bosh maqsadidir.

O'quvchilarni kasbga, ijodga yo'naltirish va ular iqtidorlarini ochish, mustaqil fikrlash va tanqidiy fikrlash kabi murakkab vazifalarni yechishda ham, ushbu darslarning ahamiyati juda katta. Shu bilan birga eng avvalo, sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilarni badiiy adabiyotlarni tanlash, o'qish, ularni saqlash va asar ustida ishlash kabi malakalari rivojlantiriladi. o'quvchilarda kitobga havas uyg'otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir. Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsagina o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik.-T. Iqtisod-moliya.2021.
2. 3.A.G'ulomov ., H.Ne'matov . Ona tili ta'lim mazmuni.-T.: “O'qituvchi”, 1995.-13-bet
3. .Hamroyev A. R. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish: Pedagogika fanlari doktori(DSc) dissertatsiyasi avtoreferati-Toshkent: Respublika ta'lim markazi,2021. 4-bet.
4. K.N.Abdullayeva, G.J.Matyakubova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash orqaali mustaqil fikrlash malakasini shakllantirish. Yangi O'zbekiston ustozlari Respublika ilmiy-amaliy jurnali.2022
5. M.E.Payanova.Ona tili darslarida o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish va nutqini o'stirish.

---

<sup>2</sup> K.N.Abdullayeva, G.J.Matyakubova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash orqaali mustaqil fikrlash malakasini shakllantirish. Yangi O'zbekiston ustozlari Respublika ilmiy-amaliy jurnali.2022